

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2025
FILOLOGIYA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.G.Sabirdinov

O'zbek tarixiy romani: Oybek va Qodiriy 6

G.M.Oripova

Aylor ijodkorlar she'riyatida daraxt obrazi tasviri 9

M.A.Jo'rayeva

Munavvar Qori Abdurashidxonov ijodida safar janri 13

G.Muhammadjonova

Hayot haqiqati, tarixiy haqiqat va badiiy idrok 17

И.А.Эшонкулов

Tavsiysi mushahhasi tazkiiraҳoi Ҳашмати Бухорай 21

B.X.Murtazoyev, F.O.Hafizova

“Bobotog”essesida peyzaj: flora tasvirida badiiyilik 28

И.А.Эшонкулов, З.П.Аҳмадҷонова

Ситоиши хирад ва хирадгустарй дар “Шоҳнома”-и Ҳаким Фирдавсий 34

D.T.Musayeva

Elizabet Gaskell ijodiga nazar 39

Н.Н.Қаюмов

Muammo shinoxti sanъati tashxis dар поэтикан мумтози форсу тоҷик 42

Sh.T.Ibragimov

“Babur the tiger” romani o'zbekcha tarjimasida metafora ifodasi 47

J.T.Ibragimov

“Qutadg'u bilig” istioralarining poetik o'ziga xosliklari xususida chuqr mulohaza 55

A.A.Akbarov

Vatanga muhabbatning lirik ifodasi 61

TILSHUNOSLIK

Sh.M.Iskandarova

Farg'ona davlat universiteti tilshunosligi: kecha va bugun 66

Г.М.Хошимов, М.Г.Хошимов, Н.А.Абдуллаева, Д.Ш.Назарова, Д.А.Ахмедова

Актуальные проблемы терминологического аппарата и метаязыка исследования пословиц и поговорок 71

Z.V.Alimova

Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonida sifat turkumiga oid forsiy leksemalar xususida 81

A.B.Uralov

Ayrim kengaygan shakllar taraqqiyoti hamda ularda nomutanosibliklar 86

Z.A.Davlataliyeva

Ingliz tili darslarida talabalarning o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishning mazmuni, shakli va vositalari 90

Н.А.Абдуллаева

Сопоставительное изучение провербем, вербализующих концептуальную оппозицию «ум/глупость» в английском и русском языках 95

Н.А.Отахонова

Проблемы общей теории и классификации лингвокультурой 100

B.B.G'apporov

Ingliz gazeta sarlavhalarining o'ziga xos xususiyatlari hamda ularda fe'l komponentli kollokatsiyalarning qo'llanilishi 106

D.M.Yuldasheva, Z.I.Usmonova

Siddiq Mo'minning "Buyuk Temur avlodi" nomli she'rida pretsedent nom tahlili 112

N.Fidan

Ellipsis in English text linguistics 115

M.O.Qulmamatova

Ingliz va o'zbek tillaridagi “boylik/wealth va kambag'allik/poverty” konseptlarining o'xshashlik va farqli jihatlari 120

N.X.Boboqulova

Ingliz va o'zbek tillarida head/bosh somatik komponentli maqollarning konseptual tahlili 124



UO'K: 81`33

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI TILSHUNOSLIGI: KECHA VA BUGUN**ЯЗЫКОЗНАНИЕ ФЕРГАНСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА: ВЧЕРА И СЕГОДНЯ****LINGUISTICS AT FERGANA STATE UNIVERSITY: PAST AND PRESENT****Iskandarova Sharifa Madaliyevna**

Farg'ona davlat universiteti tilshunoslilik kafedrasini professori, filologiya fanlari doktori

Annotatsiya

Maqolada respublikamiz tilshunosligining bugungi holati, uning takomilida farg'onaliq olimlarning xizmatlari, Farg'ona davlat universiteti tilshunosligining ayrim ilmiy yo'nalishlari, ularning shakllanishi va taraqqiyoti, istiqlol davrida universitet olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar haqida so'z yuritiladi. Xususan, tilshunoslilikning grammatika, matn sintaksi, stilistika, leksikologiya, dialektologiya, sistemaviy tilshunoslilik hamda fanning ayrim yangi yo'nalishlari bo'yicha olib borilgan ishlarni tahlil qilinadi.

Аннотация

Статья посвящена современному состоянию языкоznания в нашей республике, заслугах ферганских ученых в его совершенствовании, некоторых научных направлениях языкоznания Ферганского государственного университета, их становлении и развитии, научных исследованиях, проводимых учеными университета в период независимости. В частности, анализируются работы, выполненные в области грамматики, синтаксиса текста, стилистики, лексикологии, диалектологии, системной лингвистики и некоторых новых направлений науки.

Abstract

This article discusses the current state of linguistics in our republic, the contributions of scholars from Fergana in its development, and some scientific directions of linguistics at Fergana State University, along with their formation and progress. It also covers the scientific research conducted by university scholars during the independence period. In particular, it analyzes the work carried out in the fields of grammar, text syntax, stylistics, lexicology, dialectology, systemic linguistics, and some new directions in the science of linguistics.

Kalit so'zlar: grammatika, matn sintaksisi, stilistika, leksikologiya, leksikografiya, dialektologiya, nutq madaniyati, sistemaviy tilshunoslilik, pragmatika, til tarixi, qiyosiy tipologiya

Ключевые слова: грамматика, синтаксис текста, стилистика, лексикология, лексикография, диалектология, культура речи, системная лингвистика, прагматика, история языка, сравнительная типология

Key words: grammar, text syntax, stylistics, lexicology, lexicography, dialectology, systemic linguistics, pragmatics, history of language, speech culture, comparative typology.

KIRISH

Respublika miqyosidagi, jumladan, viloyatimizdagi tilshunos olimlarning shakllanishida, shuningdek, tilshunoslilikning fan sifatida taraqqiy etishi, rivojlanishida farg'onaliq tilshunoslarning juda katta xizmatlari bor. Universitet tilshunoslari shu kungacha tilshunoslilikning leksikologiya, dialektologiya, til tarixi, grammatika, matn sintaksi, stilistika, nutq madaniyati, sistemaviy tilshunoslilik, pragmatika, qiyosiy tipologiya singari sohalarida tadqiqotlar olib bordilar. Hozirda mazkur yo'nalishlarning takomiliga ham munosib hissa qo'shamoqdalar.

ADABIYOTLAR TAHLLILI VA METODLAR

Respublikamizda olib borilayotgan tilshunoslilik sohasiga doir ilmiy izlanishlar A.Nurmonov, N.Mahmudov [1;2], R.Rasulov [3] kabi olimlar tomonidan umumlashtirilib, ularning muayyan jihatlari ilmiy tahlilga tortilgan. Ularda IX asrdan XX asrgacha bo'lgan tilshunoslarning lingvistik qarashlari, buyuk ajodolarimizning jahon tilshunosligi rivoji uchun qo'shgan hissalari va yaqin tariximizdagi tilshunoslarning ilmiy izlanishlari bilan bog'liq masalalar bayon etiladi.

Ta'kidlash joizki, yurtimizda olib borilayotgan sohaga doir ilmiy tadqiqotlarning yuzaga kelishida universitet tilshunoslaring ham munosib o'rni bor.

TILSHUNOSLIK

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'tgan asrning boshlarida Farg'ona tilshunosligining bir qator yangi sohalari shakllana boshladi, bu borada dastlab professor B.Cho'ponzodanining xizmatlari katta bo'ldi. Olim soha bo'yicha ilmiy salohiyatining shakllanishi va mustahkamlanishi, o'quv dargohining yangi ilmiy kadrlar bilan boyishiga alohida ahamiyat berdi. O'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab tilshunoslik kafedrasida mehnat qilgan akademiklar G'.Abdurahmonov, K.K.Yudaxin; professorlar M.Mukarramov, A.Matg'oziyev; dotsentlar A.Ma'rufov, K.Yusupov, T.Rustamov, H.Rustamov, I.Farmonov, Y.Zulfiyev, X.Fattohov, T.Turg'unov singari tilshunoslар milliy tilshunosligimiz taraqqiyotiga katta hissa qo'shdilar.

O'tgan asrning 50-yillarida leksikografiya, dialektologiya sohasida ko'zga ko'rinarli ishlар amalga oshirildi. K.K.Yudaxin o'zbek-rus tarjima lug'atlarining yaratilishiga asos soldi, o'zbek tilining Qorabuloq, Vodil shevalari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib bordi. Shuningdek, olim o'tgan asrning 50-yillaridan o'zbek tilshunosligi kafedrasidagi yoshlarni tilshunoslikning **leksikologiya, dialektologiya, til tarixi, qiyosiy tipologiya** hamda **grammatika** sohalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishiga hissa qo'shdi, natijada mazkur yo'nalishlar bo'yicha jiddiy izlanishlar olib borildi. K.Yusupov o'zbek va tojik tillarining tipologiyasi muammolariga doir tadqiqot olib borib, 1958-yilda "O'zbek va tojik tillarining o'zaro aloqasi" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. I.Farmonov o'zbek tilining O'sh shevasi bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan bo'lsa, keyinchalik o'zbek tilining Qarnob, O'zgan shevalari bo'yicha ham qiziqarli materiallarni nashr ettirdi. 1966-yilda H.Uzoqov "O'zbek tilining janubiy Farg'ona shevalari", 1968-yilda T.Turg'unov "O'zbek tilining g'arbiy Farg'ona shevalari" mavzusida nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qildilar.

O'zbek tilshunosligi kafedrasining ikkinchi yirik yo'nalishi o'zbek tili grammatikasi, ayniqsa, **sintaksisni** tavsifiy tadqiq etish sanaladi. Kafedrada dastlab sintaksis sohasida A.Ma'rufov (1949), shundan so'ng H.Rustamov (1961) nomzodlik dissertatsiyalarini yoqladilar.

O'zbek tilshunosligi kafedrasining nufuzining respublika miqyosida ortishida akademik G'.Abdurahmonovning xizmatlari katta. U "O'zbek adabiy tilining qo'shma gap sintaksisi asoslari" mavzusida doktorlik (1960) dissertatsiyasini himoya qilgan. Olimning hozirgi o'zbek tili sintaksisi va **tarixiy sintaksis** bo'yicha olib borgan tadqiqotlari, ayniqsa, e'tiborga loyiq. U birinchilardan bo'lib o'zbek tilida ajratilgan gap bo'laklari mavjudligi haqidagi masalani o'rta ga tashladi va uni nazariy jihatdan asoslab berdi. G'.Abdurahmonovning o'zbek tili sintaksisi, o'zbek tilida ajratilgan gap bo'laklari, qo'shma gap sintaksisi masalalari, shu bilan birga, o'zbek tili tarixi, xususan, fonetika tarixi, sintaktik qurilmalarning tarixiy rivoji, ayrim yodgorliklar tilining sintaktik tuzilishi kabi masalalarni o'rganishga doir xizmatlari ham fanimiz ravnaqiga salmoqli hissa bo'lib qo'shildi. G'.Abdurahmonov o'zbek tilshunosligi oldida turgan vazifalarni birinchilardan bo'lib aniqlab bergen va tilimizning rivojlanishi uchun yirik tadqiqotlar olib borgan taniqli o'zbek olimi bo'lib, uning "O'zbek xalqining va tilining rivojlanish tarixi" (1999), "Milliy tillarning taraqqiyoti" (1962), "Qadimgi turkiy til" (1983), "Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis" (1998) kabi o'zbek tilining tarixi, rivojlanishi hamda uning nazariy masalalarini yorituvchi muhim ahamiyatga molik bo'lgan yirik tadqiqotlari alohida o'rnatadi.

Kafedra olimlari A.Matg'oziyev, M.Rahmonovlar o'z izlanishlari bilan **turkiy tillar tarixi**, xususan, eski o'zbek tili so'z turkumlari, ularning tasnif asoslari, lug'aviy va grammatic xususiyatlari yuzasidan dastlabki nazariy fikrlarni o'rta ga tashladilar. Professor A.Matg'oziyevning mazkur yo'nalishdagi xizmatlari, jumladan, «XIX asr o'zbek tilining morfologiysi» monografiyası (1977) nafaqat respublika ilmiy jamoatchiligi, balki turkshunos olimlar tomonidan ham yuqori baholandi. Olim xalqimiz tarixiga oid nodir asarlarni avlodlarga yetkazishda ham samarali ish olib bordi. M.Rahmonov o'zbek tili tarixiga doir «Turkiston viloyatining gazeti» tilining sintaktik xususiyatlari» mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilish bilan (1974) tilimiz taraqqiyotida publisistik uslubning o'rnini yoritishda hissa qo'shdi. X.Fattohov «Muhammad Rizo Xoksor va uning «Muntaxab-ul lug'at»i» mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi bilan (1974) leksikografiya sohasini yangi materiallarni bilan boyitdi.

Bu davrda o'zbek tilshunosligi kafedrasni olimlarining o'zbek leksikografiysi, o'zbek tili stilistikasi, o'zbek tili o'qitish metodikasi muammolari yuzasidan ham diqqatga sazovor asarlari yaratildi. Professor M.Mukarramov **o'zbek tili stilistikasi** masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borib, mazkur yo'nalishning ravnaqiga munosib hissa qo'shdi. Olim yaratgan mazkur sohadagi

asarlar orasida «O'zbek tilining ilmiy stili» (1984) monografiyasi o'zbek tilshunosligida stilistika bo'yicha yozilgan eng qimmatli asarlardan biriga aylandi. Shuningdek, bu yo'nalishda I.Hojaliyev «Tasvir nutq tipining lingvistik xususiyatlari» mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan (1998). Uning sohaga doir monografiyalari ("Tasvir nutq tipining lingvtistik xususiyatlari", "Monologik nutq tiplari", "Adekvatlik va ekvivalentlikning lingvokognitiv aspektlari", "Siyosiy diskursda so'zlovchi shaxsining o'rni") ham yaratildi.

Tilshunoslik sohasida olib borilgan ilmiy izlanishlar doirasida o'zining uzoq yillik mehnatlari, chuqur ilmiy-nazariy qarashlari bilan respublika ilmiy jamoatchiligi orasida yuksak e'tirofga sazovar bo'lgan Y.Zulfiyevning faoliyatini alohida ta'kidlash zarur. Uning **tilshunoslik nazariyası** bilan bog'liq ilmiy tahlillari, jumladan, grammatika sohasidagi qarashlari diqqatga sazovar edi. Olimning son, jamlik kategoriyasining o'ziga xos jihatlari doirasidagi chuqur ilmiy mushohadaga singdirilgan bir qator maqolalari nufuzli ilmiy jurnallarda e'lon qilingan.

Tilshunoslik kafedrasida, ayniqsa, mustaqillik yillarda katta yutuqlarga erishildi. Istiqlolning dastlabki yillarda 5ta doktorlik (A.Mamajonov, Sh.Iskandarov, S.Mo'minov, M.Hakimov, D.Nabiyeva), 20ga yaqin nomzodlik dissertatsiyalari muvaffaqiyat bilan himoya qilindi.

Tilshunoslik kafedrasida professori A.Mamajonov **sintaksis** sohasida diqqatga sazovor izlanishlarni olib borish bilan birga, o'zbek tilshunosligiga yangi yo'nalish – **matn lingvistikasi** va **stilistikaning** kirib kelishiga ham katta hissa qo'shdi. U «Hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida periodlar» mavzusida nomzodlik (1975), «O'zbek tili qo'shma gaplarining stilistik xususiyatlari» mavzusida doktorlik (1991) dissertatsiyalarini himoya qildi. Olim yaratgan qator ilmiy risolalar va qo'llanmalar, xususan, «Tekst lingvistikasi» (1979), «Qo'shma gap stilistikasi» (1991), «Nutqning periodik ko'rinishi» (1995), «Uslubiy vositalar» (1996), «Matn sintaksisi» (2002), «Gapning shakliy va mazmuniy tuzilishiga ko'ra turlari» (2004), «Matn birlklari» (2013), "Sintaktik stilistika" (2018), "O'zbek matnining semantik, sintaktik va stilistik xususiyatlari" (2021) singari o'quv-uslubiy qo'llanmalari hamda "Matn tilshunosligi" (2021), "Sintaktik stilistikaning nazariy masalalari" (2024) darsliklari o'zbek tilshunosligining rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. Professor A.Mamajonov tilshunoslik sohasida o'z ilmiy maktabiga ega bo'lib, ilmiy-pedagogik kadrlarning ortishida munosib hissa qo'shmoqda.

M.T.Abdupattoyev ham matnshunoslik sohasida izlanish olib borib, "O'zbek matnida supersintaktik butunliklar" mavzusida nomzodlik (1998), "O'zbek tilining poetik sintaksisi" mavzusida doktorlik dissertatsiyalarini (2021) himoya qildi. Uning "Matn sintaksisi" (2002), "Matn nazariyası" (2016), "O'zbek tilining poetik sintaksisi" (2021), "Lingvopoetika asoslari" (2022), "Lingvopoetik figuralar" (2024) nomli darslik va o'quv-uslubiy qo'llanmalari nashr etilgan. D.Yuldasheva "O'zbek bolalariga xos og'zaki va yozma matnlarning antropotsentrik tadqiqi" (2022), D.Teshaboyev "Qo'shma gaplarning falsafiy tadqiqi" (2023) mavzusida doktorlik dissertatsiyalarini himoya qildilar va bu sohada monografiyalar ham yaratdilar. H.Do'smatov "O'zbek milliy so'z o'yinlari lingvostilistikasi" mavzusida doktorlik (2023) dissertatsiyasini himoya qildi. Uning "Uslubshunoslik asoslari" (2021), "Askiya – so'z o'yinlari san'ati" (2021), "O'zbek milliy so'z o'yinlarining lingvostilistik tadqiqi" (2022), "So'z san'atlari" (2024) nomli monografiya, darslik va uslubiy qo'llanmalari chop etilgan. E.Ibragimovaning ham sohaga doir "O'zbek tilida ironik mazmun ifodalash usullari", "O'zbek tilida bahoning aksiologik talqini" o'quv-uslubiy qo'llanmalari e'tiborga loyiq.

Farg'ona olimlarining **o'zbek nutq madaniyati** sohasidagi xizmatlari ham alohida ahamiyatga ega. Professor S.M.Mo'minovning shu kunga qadar muloqot madaniyatining turli qirralariga oid o'ndan ortiq monografiya, o'quv-uslubiy qo'llanma va risolalari yaratildi. U "O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini (2000) himoya qildi. Olim o'zi olib borayotgan ilmiy muammolarning keng omma orasida targ'ib etilishiga ham katta ahamiyat bermoqda. S.Mo'minovning "Muomala sirlari", "Dili pokning tili pok", "So'zlashish san'ati", "Nutq va ijod uslubining hududiy xoslanishi", "Nutq madaniyati", "Muloqot mezoni", "Suv ham shifo, so'z ham shifo", "Soliqchining muloqot madaniyati" kabi nutq madaniyati, odob-axloq masalalariga oid ilmiy va ilmiy-ommabop risolalari respublikamizning nufuzli nashriyotlarida bosilib chiqqan.

Professor S.Mo'minov rahbarligida o'nlab tadqiqotchilar o'zbek nutq madaniyati, muloqot madaniyatining milliy, hududiy, ijtimoiy-lisoniy muammolari borasida qator ilmiy ishlar olib borib,

TILSHUNOSLIK

o'zbek tilshunoslida nutq madaniyati sohasining rivojiga munosib hissa qo'shamoqdalar. M.Y.Mamajonov "Antroponiqlar diskurs relevanti sifatida" mavzusida falsafa doktori (2020), "Muloqotning psixolingvistik tadqiqi" mavzusida fan doktori (2025) dissertatsiyasini muvaffaqiyat bilan himoya qildi. Shu yo'naliishdagi "O'zbek muloqot xulqining psixolingvistik tadqiqi" nomli monografiyasi (2024) sohaga doir ilmiy-nazariy qarashlarni boyitishda muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Keyingi yillarda Farg'ona tilshunoslari tomonidan tilshunoslikdagi yangi ilmiy yo'naliishlar bo'yicha ham izlanishlar olib borildi. Jumladan, tilshunoslikning tabiiy fanlar bilan aloqasi doirasida o'zbek tilshunosliga ilk bora **maydon nazariyasi** olib kirildi [4;5] va bu borada respublikamiz miqyosida muayyan ilmiy maktab ham yaratildi.

Farg'onalik tilshunoslар tomonidan **pragmalingvistika** sohasida ham samarali ish olib borilmoqda. M.X.Hakimov "O'zbek tilida matnning pragmatik talqini" mavzusidagi doktorlik (2000) dissertatsiyasini yoqladi, uning «O'zbek tili pragmatikasini o'rganish» (2011), «O'zbek pragmalingvistikasi asoslari» (2013), «Pragmantonatsiya» (2019), «Pragmalingvistik tadqiqotlar tarixi» (2020), «Nutqiy aktlar nazariyasi» (2020), "Pragmalingvistika asoslari" (2020), «Pragmalingvistika kursiga kirish» (2022), "Poetik matnlarning pragmatik xususiyatlari" (2024) kabi asarlari o'zbek tilshunoslida antropotsentrik yo'naliishning rivojida muhim o'r'in tutadi. M.Gaziyeva "Badiiy matnning implikativ-pragmatik xususiyatlari" mavzusida fan doktori (2024) dissertatsiyasini himoya qildi. Uning bu boradagi "Badiiy matnning implikativ-pragmatik xususiyatlari" (2024), "Badiiy matn va tagma'no nazariyasi" (2024) monografiyalari mavjud.

Mazkur kafedra olimlari **turkiy tillar va ularning tarixi** masalasida ham munosib ish olib bormoqdalar. N.R.Umarova "Alisher Navoiy g'azallari maqtasida sabab va oqibat munosabatining ifodalanishi" mavzusida nomzodlik (2005), "Alisher Navoiy asarlarining lisoniy-konseptual tadqiqi" mavzusida fan doktori (2021) dissertatsiyalarini himoya qilgan. U leksikologiya, semasiologiya, navoiyshunoslik, o'zbek tili tarixi kabi sohalar doirasida izlanishlar olib bormoqda. Jumladan, "Alisher Navoiy – badiiy so'z ustasi" (2010), "Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonida o'xshatish konstruksiyalari" (2020), "Navoiy g'azallari maqtasida sabab va oqibat munosabatining mazmuniy hamda konstruktiv shakllari" (2016), "Alisher Navoiy g'azallarining badiiy til xususiyatlari" (2019), "Alisher Navoiy asarlarida konseptlarning lisoniy vogelanishi" (2022), "Alisher Navoiy g'azallarining leksik-semantik xususiyatlari" (2022), "Alisher Navoiy g'azallarida shaxs nomlarining ifodalanishi" (2022) nomli monografiyalari nashr etilgan.

G.Z.Rozikova ham sintaksis va turkiy tillar tarixi bo'yicha samarali mehnat qilmoqda. Olma "Devonu lug'otit turk" asaridagi ot leksemalarning semantik, funsional va uslubiy xususiyatlari" mavzusida fan doktori (2021) dissertatsiyasini himoya qildi. G.Rozikovaning "XI-XIV asrlar o'zbek adabiy tilining negiz dialekti muammosi" (2014), "O'zbek tili tarixi" fanidan amaliy va seminar mashg'ulotlari ishlanmasi (2023) nomli darslik va o'quv-uslubiy qo'llanmalari; "Mahmud Koshg'ariy «Devon»idagi ot leksemalarning mavzuuiy-ideografik lug'ati" (2021); "Mahmud Koshg'ariy «Devonu lug'otit turk» asaridagi ot leksemalarning funsional-semantik va uslubiy xususiyatlari" (2021) nomli monografiyalari nashr etilgan. Bu yo'naliishda S.U.Gafurova ham ilmiy izlanish olib borib, 2024-yilda "Tavorixi guzida. Nusratnoma" asari leksikasi" nomli monografiyasini chop etdi va shu mavzuda fan doktori dissertatsiyasini (2025) himoya qildi.

Keyingi yillarda tilshunoslik kafedrasida olimlari **kognitiv tilshunoslik** muammolari bilan ham shug'ullanmoqdalar. Z.A.Akbarova "Olam lisoniy manzarasining shakllanishida kognitiv o'ziga xoslik" mavzusida fan doktori (2021) dissertatsiyasini himoya qildi. Uning "O'zbek tilida murojaat shakllari" (2015), "Olam lisoniy manzarasida kognitiv o'ziga xoslik" (2020), "Kognitiv tilshunoslik" (2023), "O'qituvchi nutqi madaniyati" (2023) nomli monografiya va o'quv-uslubiy qo'llanmalari nashr etilgan.

Tilshunoslik kafedrasida **til aloqalari, so'z o'zlashishi** jarayonlari ham alohida tadqiq etilmoqda. Bu borada S.M.Zokirova, M.T.Zokirov, M.U.Amonov, Z.V.Alimovalarning faoliyatini alohida ko'rsatish mumkin. Jumladan, S.Zokirova "Turli tizimli tillarda kongruentlik hodisasi" mavzusida (2022) doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi.

Farg'ona tilshunoslarining ilmiy tadqiqotlari haqida so'z yuritilganda, universitet olimlarining bu boradagi keng tarmoqli faoliyatini ham e'tiborga olish lozim. Xususan, Sh.A.Ganiyevaning frazeologiya sohasidagi izlanishlarini ham alohida e'tirof etish zarur. Sh.Ganyieva "O'zbek

frazeologizmlari strukturasi (shakliy va mazmuniy modellashtirish)" mavzusida falsafa doktori (2017), "Frazeologik birliklarning sintagmatik tadqiqi" mavzusida fan doktori (2023) dissertatsiyasini himoya qildi. Uning "O'zbek frazeologizmlarining struktur tadqiqi" (2013), "Frazeologik birliklarning sintagmatik tadqiqi" (2023) nomli monografiyalari o'zbek frazeologizmlarining yangi qirralarini ochishga xizmat qilmoqda.

Farg'onalik olimlar tilshunoslik nazariyasi, shuningdek, rus, ingliz, nemis va fransuz tillari bilan qiyosan olib borilgan ilmiy izlanishlari bilan ham ko'zga tashlanadi. Jumladan, A.G.Muhiddinovning "Tafakkur va til kognitiv jarayonlarining uyg'unligi madaniyat kontentini verbal identifikatsiyalash negizi sifatida" (2021) mavzusidagi, D.A.Ganiyevaning "Turli tizimdagi tillarga mansub fe'llarda sinkretizm va polifunktionallik" (2022) mavzusidagi fan doktori dissertatsiyalari, shuningdek, D.Ganiyevaning "Turli tizimdagi tillarda funksionallik tamoyillari" (2022) nomli monografiyalari ana shunday izlanishlar natijasidir.

XULOSA

Hozirda universitet tilshunoslari tilshunoslikning bugungi kundagi dolzarb muammolariga bag'ishlangan turli yo'naliishlarda tadqiqotlar olib borishmoqda. Bu borada yosh tadqiqotchilarning monografiya hamda o'nlab ilmiy maqolalari xalqaro va respublika miqyosidagi nufuzli nashrlarda chop etilmoqda, ularning natijalari sifatida dissertatsiyalar muvaffaqiyat bilan himoya qilinmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Нурмонов А., Махмудов Н. Ўзбек тилшунослиги тарихи. Тошкент: Камолот, 2000.
2. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. Тошкент: Ўзбекистон, 2002.
3. Расулов Р. Ўзбек тилшунослиги тарихи. Тошкент, 2005.
4. Искандарова Ш. Тил системасига майдон асосида ёндашув. Тошкент: Фан, 2007.
5. Iskandarova Sh. Tilshunoslikning dolzarb masalalari. Farg'ona: Classik, 2023.
6. Iskandarova Sh. O'zbek tilshunosligining dolzarb muammolari. Farg'ona: Classik, 2024.